

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA  
O'RGATISH USULLARI**

*Shaxnoza Turdiyeva Bahromjon qizi*

*Namangan viloyati Toraqorxon tumani*

*16-umumiy orta ta'lim maktabi*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf oquvchilarida zarur bilim, ko'nikma va malakalarni ega bo'lishlari va hayotga tatbiq eta olishlarida ulardagi kreativ fikrlash motivatsiyalarining o'rni va ahamiyati haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, axborot, qobiliyat, ijodkorlik, ko'nikma, yaratuvchanlik, pedtexnologiya, samaradorlik.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi. Ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir. Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllanadi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birligidagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, malaka vako'nikmalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'yndaydi. Ta'lim berish yoshlarga bilim berish. Ularda ko'nikma va malakalarni

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

hosil qilish, ya’ni haqiqatni ocha olishga qodir bo’lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy

www.pedagoglar.uz48-son 2-to’plam Sentyabr 2023 Sahifa: 116

globallashuv va axborotlashuv davrida ta’limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tatbiq etmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta’limda, birinchi navbatda, ijodiy qobilyatlar, o’z-o’zini rivojlantirish va kreativ fikrlash eng muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to’g’ri va o’rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlik—lotincha so’z bo’lib, “ijod” yoki “yo’q narsadan yaratish” kabi ma’nolarni anglatadi. Kreativlik –shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo’lib, u o’zida muayyan yangilikni, yangi g’oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o’zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan’anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang’ich sinf o’qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo’lishi muhim ahamiyatga ega bo’lib, bu jihatni uning ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining kreativlik fikrlash qobilyati va ijodkorlik xususiyati uning ta’lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg’ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo’ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko’ra kreativ fikrlash, ehg avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o’quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko’plab g’oyalarga tayanishni talab etadi. Ya’ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o’quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so’ngra ular orasidan eng maqbul birgina to’g’ri yechimga to’xtaladi. Oqituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o’quvchilarining darsda berilgan bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishlari, qo’llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O’qituvchining kreativligi darsda ikki holatni

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

kafolatlaydi:-Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni , darsda “bir xillik”dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jab etish va qiziqtirish www.pedagoglar.uz48-son 2-to'plam Sentyabr 2023 Sahifa: 117-O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur.Hozirgi kundagi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning asosiy maqsadi ham o'quvchi va yoshlarning o'ziga xos kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga va ularning bo'sh vaqtini mazmunli, samarali tashkil etishga qaratilgan. Ozod va obod Vatanimizning ertangi kelajagi bugungi o'quvchi yoshlarning qo'lida ekan, buni biz o'qituvchi pedagoglar doimo yodda tutishimiz va o'z kasbimizga sidqidildan yondashishimiz kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb –hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 187-sonli qarori hujjatlari. 2017-yil
2. Pedagogika. O'. Asqarova va boshqalar. 7-bob. “Fan”, 2004-yil
3. Xalq ta'limi jurnali . 55-bet. 2018-yil. 3-son
4. Matematika . 1-sinf. 2019-yil5.”Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2016